O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UO‘K: 821.512.133.09-1

Gulchexraxon O.TURAKULOVA,
Tayanch doktorant, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: gulchehratoraqulova51@gmail.com, ORCID: 0009-0008-7178-0282

F.f.n., dots.v.b. K.Bokiyev taqrizi asosida

CLASSICAL LITERARY TRADITIONS AND INDIVIDUAL STYLE IN THE POETRY OF ALIKHANTURA SOGUNI

Annotation

The article explores the continuity of classical literary traditions and the distinctive features of individual style in Alikhantura Soguni’s poetry. It examines the artistic expression of moral and didactic ideas, the semantic functions of traditional poetic images, and the use of figurative devices.

Keywords: Alikhantura Soguni, classical literature, poetry, poetics, individual style, literary devices, didactic lyric, imagery.

КЛАССИЧЕСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ И ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ СТИЛЬ В ПОЭЗИИ АЛИХАНТУРЫ СОГУНИ

Аннотация

В статье исследуются преемственность классических литературных традиций и проявления индивидуального стиля в поэзии Алихантуры Согуни. Анализируются художественное воплощение нравственно-дидактических идей, смысловые функции традиционных поэтических образов и особенности использования художественных средств.

Ключевые слова: Алихантура Согуни, классическая литература, поэзия, поэтика, индивидуальный стиль, художественные средства, дидактическая лирика, образ.

ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY SHE’RIYATIDA MUMTOZ ADABIY AN’ANALAR VA INDIVIDUAL USLUB

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alixonto‘ra Sog‘uniy she’riyatida mumtoz adabiy an’analarning davomiyligi va shoir individual uslubining namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etiladi. Shoirning nazmiy merosida axloqiy-didaktik qarashlarning badiiy ifodasi, an’anaviy poetik obrazlarning mazmuniy vazifasi hamda badiiy san’atlarning qo‘llanish tamoyillari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alixonto‘ra Sog‘uniy, mumtoz adabiyot, she’riyat, poetika, individual uslub, badiiy san’at, didaktik lirika, obraz.

Kirish. XX asr o‘zbek adabiy jarayonini tadqiq etishda tarixiy sinovlar davrida yashab, mumtoz poetik tafakkur an’analarini davom ettirgan ijodkorlar merosini qayta o‘rganish muhimdir. Alixonto‘ra Sog‘uniy (1885–1976) ko‘pincha tarixiy faoliyati va ma’rifiy asarlari bilan tilga olinadi. Biroq uning she’rlari mustaqil badiiy hodisa sifatida, xususan, shakl va mazmun, an’anaviy obraz hamda muallif nutqi munosabatida maxsus tahlilni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi Sog‘uniy she’riyatida mumtoz adabiy an’analarning badiiy vazifasini aniqlash, obraz va san’atlarning fikrni ifodalashdagi rolini izohlash hamda individual uslub belgilarini ko‘rsatishdir. Asosiy e’tibor axloqiy-didaktik lirikadagi gavhar–tosh qarama-qarshiligi, murojaat ohangi, ritorik savol, Vatan va ilm tushunchalarining poetik munosabatiga qaratiladi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik va poetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Sog‘uniy she’riyati haqidagi ma’lumotlarning manbaviy qatlamlari bir-biridan farqlanadi. Birinchi qatlam – shoir she’rlarining matni; ikkinchisi – ijodkor hayotini yorituvchi biografik va xotira materiallari; uchinchisi – keyingi nashrlarga yozilgan adabiy-tanqidiy sharhlardir. Bu qatlamlarni ajratish poetik xulosani biografik taxmin bilan almashtirib yubormaslikka xizmat qiladi.

Qutlug‘xon Shokirovning “Ikki Turkiston g‘ururi” maqolasi Sog‘uniy hayoti va merosini mustaqillikning dastlabki davrida ommaga qayta tanishtirgan muhim adabiy-tarixiy manbadir [1]. “Sharq yulduzi”ning 1992-yilgi 7-sonida adibning she’rlari ham e’lon qilingan [2]. Biografik ma’lumot va poetik matnning bitta nashr doirasida yonma-yon taqdim etilishi she’riyatni tarixiy kontekst bilan bog‘lab o‘qish imkonini beradi, lekin lirik asarni muallif tarjimayi holiga to‘liq tenglashtirishga asos bo‘la olmaydi.

“Ikki Turkiston g‘ururi” maqolasi shoirning ta’limi, ilmiy muhiti, tarixiy tajribasi va ijodiy faoliyatiga oid ma’lumotlar uchun muhimdir. Ushbu manba adibning tarixiy shaxsiyatini yoritadi; she’rlar poetikasini aniqlashda esa matnning o‘zi hal qiluvchi dalil bo‘lib qoladi. 1992-yilgi nashrda she’riy namunalar mavjudligi [2] tadqiqotchi uchun biografik tasvirni lirik nutq bilan qiyoslash imkonini yaratadi.

Mirza Kenjabekning “Baxtlilik nedur?” to‘plamiga yozgan “Alloma she’riyati” so‘zboshisi [3] Sog‘uniy nazmini kitobxonlarga tanishtiruvchi adabiy-tanqidiy yondashuvdir. 2024-yilda nashr etilgan “She’rlar. Turkiston qayg‘usi” majmuasi [4] she’riy merosni kengroq ko‘lamda o‘rganish imkonini beradi. Yoqubjon Xo‘jamberdiyevning biografik tadqiqoti [5] va S.Pardayevaning ilmiy merosga bag‘ishlangan maqolasi [6] tarixiy-ma’rifiy kontekstni to‘ldiradi. Ushbu ishlar mavjudligi Sog‘uniy she’riyatidagi an’anaviy poetik vositalarning aynan qanday individual vazifa bajarganini matn asosida qayta tekshirish ehtiyojini yo‘qqa chiqarmaydi.

Mumtoz adabiyot bilan qiyoslashda shakliy o‘xshashlik va badiiy vazifani farqlash lozim. Masalan, “gavhar” obrazi an’anaviy she’riyatda qadriyat va nodirlikni anglatishi mumkin, ammo muayyan baytda uning qanday ma’no olishi matndagi qarama-qarshi obrazlar va sintaktik qurilishga bog‘liq. Shuning uchun ushbu maqolada shoirning har bir tasvir vositasi tarixiy-biografik izohdan oldin o‘z matni ichida talqin qilinadi.

Tadqiqot metadalogiyasi. Tadqiqot korpusiga Sog‘uniyning “Baxtlilik nedur?” to‘plami [3], “She’rlar. Turkiston qayg‘usi” nashri [4] hamda “Sharq yulduzi”dagi

she’riy materiallar [2] kiritildi. Matnlar to‘liq tanqidiy nashr darajasida qiyoslanmagani bois, variantlar orasidagi farqlar haqida qat’iy tekstologik hukm chiqarilmadi. Mazkur maqolada tahlilning asosiy birligi sifatida bayt, obrazlar juftligi, murojaat va ritorik savol tanlandi.

Tarixiy-adabiy yondashuv shoirning mumtoz poetik an’ana bilan aloqasini tushuntirishga; qiyosiy-tipologik yondashuv esa umumiy an’ana bilan individual ifoda o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatishga xizmat qildi. Manbalar havolasi nashr raqami orqali berildi; faqat mustaqil tekshirilgan joylarda sahifa ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb topildi.

Natija va muhokama. Sog‘uniy she’riyatidagi didaktik yo‘nalish faqat nasihat mazmunining ustunligidan iborat emas. Nasihat she’riy nutqda obraz, qarama-qarshilik, tanbeh va murojaat orqali estetik shakl oladi. Shoirning “Aslida javhar ko‘ran ermas ekandur har kishi, Qayda bilgay parqini gavharmidur yo qora tosh” [3] bayti mazkur holatning xarakterli namunasidir. Bu yerda “gavhar” va “qora tosh” oddiy predmetlar emas, qadrni anglash hamda anglay olmaslik o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatuvchi poetik belgilar vazifasini bajaradi.

Baytning dastlabki misrasida “har kishi” umumlashtiruvchi ifoda bo‘lib, insonlarning baholash qobiliyati bir xil emasligini ta’kidlaydi. Ikkinchi misradagi savol esa tayyor hukmni qaytarishdan ko‘ra o‘quvchini xulosaga olib keladi. Savol shakli javob talab qilmaydi: “gavhar” bilan “qora tosh”ni farqlash qobiliyati ma’naviy mezon sifatida ilgari suriladi. Shunday qilib, didaktik fikr bevosita buyruqdan ko‘ra obrazli qarama-qarshilik orqali kuchaytirilgan.

Bu poetik tuzilish mumtoz adabiyotdagi hikmatli bayt an’anasiga yaqin turadi [8] . Biroq an’anaviy timsolning qayta qo‘llanishi ijodiy individuallikni istisno etmaydi. Sog‘uniyda gavhar obrazi ko‘proq ma’naviy qadrni tanish, so‘zning munosib tinglovchisini topish muammosi bilan bog‘lanadi.

Gavhar va qora tosh qarama-qarshiligi tazodga yaqin semantik juftlik hosil qiladi. Bunda predmetlarning moddiy xususiyati emas, ularga yuklangan baholash ma’nosi yetakchilik qiladi. “Gavhar” – qimmatli ma’no va yetuklik, “qora tosh” – shu qadrni anglamaslik bilan bog‘liq tasavvurlarni uyg‘otadi. Obrazlar o‘rtasidagi masofa kuchaygan sari baytning axloqiy xulosasi ham ravshanlashadi.

Shoirning “Qadri yo‘q gavhar so‘zing olchoq kishilar oldida, Durni taqsang na bilur, it og‘ziga tashla suyak” [10] misralarida ham gavhar va dur obrazlari so‘zning qadri bilan bog‘lanadi. Mazkur satrlardagi keskin baholovchi ohang shoirning axloqiy-didaktik lirikasiga xos tanbeh usulini namoyon qiladi. “Gavhar so‘z” birikmasi istioraviy ma’noda qo‘llanib, so‘zning tashqi shaklini emas, uning ma’naviy qiymatini ko‘rsatadi. Baytning ikkinchi misrasida esa qabul qiluvchi muhitga mos bo‘lmagan qadriyatning e’tiborsiz qolishi keskin taqqoslash orqali ifodalangan.

Mazkur ikki baytni birgalikda o‘qish shoirning takrorlanuvchi poetik modelini ko‘rsatadi: qimmatli narsa – uni tanimaydigan muhit – ogohlantiruvchi xulosa. Demak, obrazlar tizimida takrorlanish faqat lug‘aviy emas, kompozitsion vazifaga ham ega. Shoir hikmatni mavhum tushuncha sifatida emas, konkret predmetlar munosabati orqali idrok ettiradi.

Mumtoz she’riyatga xos murojaat shakllari ham Sog‘uniyda fikrni kuchaytirish vositasiga aylanadi. Murojaat ba’zan o‘quvchini bevosita suhbatdoshga aylantirsa, ba’zan umumiy jamoaga qaratilgan ma’naviy da’vat ohangini hosil qiladi. Shuning uchun shoirning individual uslubini faqat qaysi san’atdan foydalangani bilan emas, ayni san’at orqali qanday nutqiy vaziyat yaratgani bilan baholash lozim.

Biz qamaldik bu temir qo‘rg‘on ichida ingranib,
Bu zulm qo‘rg‘on qopusin sindirar kun bormikan? [7]

misralarida “temir qo‘rg‘on” birikmasi makonning moddiy tasviridan kengroq ma’noni anglatadi. Qo‘rg‘on obrazi to‘siq, cheklanish va chiqish yo‘lini izlash kechinmalarini birlashtiradi. “Kun bormikan?” ritorik savoli esa mavjud vaziyat bilan orzu qilinayotgan erkinlik orasidagi masofani ochadi.

“Barcha olam yo‘llari ochiq erur, bizga yopiq, Ey Xudo, haj yo‘li bizlarga ochiq kun bormikan?” baytida “ochiq” va “yopiq” so‘zlari aniq tazod hosil qiladi. Birinchi misradagi “barcha olam” va “biz” qarama-qarshiligi shaxsiy kechinmani jamoaviy holatga aylantiradi. Ikkinchi misradagi iltijo esa ushbu holatga ruhiy-ma’naviy chuqurlik beradi. Shunday qilib, lirik subyektning nutqi tarixiy sharoitga munosabatni ham, e’tiqodiy intilishni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Bu misralarni faqat tarixiy voqeaga ishora sifatida o‘qish yetarli emas. Ularning badiiy ta’siri aynan “qo‘rg‘on”, “yo‘l”, “ochiq”, “yopiq” kabi sodda, lekin qarama-qarshi ma’nolarni jamlagan so‘zlarning tanlanishida namoyon bo‘ladi. Sog‘uniy lirik nutqida murakkab tarixiy holat ko‘pincha ixcham va esda qoladigan obrazlar orqali ifodalanadi. Shokirov taqdim etgan tarixiy-biografik kontekst [1] ushbu kechinmaning davriy asosini anglashga ko‘maklashadi, ammo she’rning estetik ta’sirini izohlash uchun poetik qurilishning o‘zini ham ko‘rish zarur.

Tahlil qilingan misollar Sog‘uniy she’riyatida kamida to‘rtta o‘zaro bog‘liq xususiyatni ajratishga imkon beradi: hikmatga yo‘naltirilgan bayt qurilishi; aniq predmetlar vositasida mavhum axloqiy tushunchalarni ifodalash; ritorik savol va murojaat orqali tinglovchini faol suhbatdoshga aylantirish; tarixiy-jamoaviy kechinmani ixcham ramziy obrazga jamlash. Ushbu belgilarni shoirning barcha she’rlariga bir xil darajada xos deb umumlashtirish uchun kengroq korpus tadqiqi zarur.

Mumtoz adabiy an’ana Sog‘uniy uchun tayyor qolip emas, fikrni yetkazish imkoniyatidir. Gavhar, dur, tosh, qo‘rg‘on va yo‘l singari tasvirlar an’anaviy yoki umumadabiy ma’nolarga ega bo‘lsa-da, ularning she’rdagi vazifasi muallifning nutqiy maqsadiga ko‘ra aniqlanadi. Shoir ayrim o‘rinlarda nasihatni obrazga aylantirsa, boshqa o‘rinlarda tarixiy iztirobni ritorik savolga joylaydi. Individual uslub aynan shu badiiy tanlovlar tizimida namoyon bo‘ladi.

Bunday yondashuv Sog‘uniy she’riyatini faqat “ma’rifiy” yoki “vatanparvarlik” kabi umumiy belgilashlardan tashqariga olib chiqadi. Poetik matnning qiymati g‘oyaning o‘zidagina emas, uning ifodalanish usulida ham namoyon bo‘ladi.

1-jadval. Sog‘uniy she’riyatidagi ayrim poetik vositalarning funksional tavsifi

Poetik vosita	Matniy belgi	Badiiy vazifa
Tazod	Gavhar – qora tosh	Qadrni anglash va anglamaslikni qarama-qarshi qo‘yish
Istiora	Gavhar so‘z	Ma’naviy qiymatni predmet timsolida ifodalash
Ritorik savol	“Kun bormikan?”	Kutish, iztirob va umid ohangini kuchaytirish
Ramziy makon	Temir qo‘rg‘on, yo‘l	Cheklanish va erkinlik munosabatini ifodalash

Manba: muallif tomonidan yuqorida tahlil qilingan she’riy misollar asosida tuzildi.

Alixonto‘ra Sog‘uniy she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri mumtoz adabiyotga xos badiiy tasvir vositalarining axloqiy-ma’rifiy, ijtimoiy va tarixiy mazmun bilan uyg‘unlashuvidir. “Qolur yolg‘uz”, “Shobdon botirga”, “Hazar qil” she’rlari hamda “Tarixiy yodgor” matnida tashbeh, istiora, tazod, tashxis va tarix moddasi kabi vositalar turli poetik vazifalarni bajaradi.

She’r ta’mini totmagan odam, Chekidan tashqari qilur har so‘z. Xafa bo‘lmang ani eshitganlar, Gul isini qachon bilur

qo‘ng‘uz? Guli rayhon ochilg‘onin boqmay, Turtadur erni har qachon to‘ng‘uz. O‘z tilini yaxshi bilmagan odam, Elidin ayrilib qoladur yolg‘uz.[9]

“She’r ta’mini totmagan” birikmasi istioraviy ifoda bo‘lib, badiiy so‘zni anglash jarayonini ta’m bilish sezgisi orqali tasvirlaydi. “Gul isini qachon bilur qo‘ng‘uz?” ritorik so‘rog‘i badiiy didning yetishmasligi haqidagi fikrni kuchaytiradi. Gul va rayhon nafosatga, qo‘ng‘uz va to‘ng‘uz esa bu nafosatni idrok etmaslikka ishora qiluvchi qiyosiy obrazlar sifatida ishlatilgan.

“Tarixiy yodgor” [9] da Sog‘uniy Farg‘onaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi haqida boshqa bir turk shoiri aytganini bildirgan to‘rtlikni keltiradi. Demak, quyidagi misralarni Sog‘uniyning o‘z ijodi sifatida ko‘rsatish mumkin emas:

Yurtimizni o‘ris kelib oldi, Hukmi haq deb hamma bo‘yin soldi. Yig‘lab ustodi aql shomu sahar, Topdi tarixini “kamoli Zarar” [9].

“Yig‘lab ustodi aql” ifodasida aql jonlantiriladi (tashxis), “shomu sahar” birikmasi esa iztirobning davomiyligini ifodalaydi. “Kamoli zarar” iborasi tarix moddasi – harflarning abjad qiymati orqali sana ifodalash – an’anasi bilan bog‘langan. Ushbu namuna Sog‘uniyning mumtoz poetik an’anaga munosabati va tarixiy xotirani ifodalash usulini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Tilim, turk xalqiga ko‘p ofarin qil, Na yanglig‘ maqtasang ozdir, aniq bil. Yarash chog‘ida mehmondek o‘tirg‘ay, Urush kunlarida arslondek otilg‘ay [10].

“Tilim” undalmasi shoir nutqiga murojaat shaklini beradi. “Mehmondek” va “arslondek” tashbehlari orqali vazminlik hamda jasorat qiyoslanadi. “Yarash” va “urush” so‘zlari tazod hosil qilib, tinchlikdagi muloyimlik bilan xavf paytidagi qat’iyatni o‘zaro to‘ldiruvchi fazilatlar sifatida ko‘rsatadi. Qahramonlik shu tariqa faqat jangovar kuch emas, balki axloqiy me’yor bilan uyg‘un fazilat tarzida talqin qilinadi.

Haqiqat sirriga hech kimsa etmas, Shariat ushlaganlar yo‘lda qolmas.

Hasaddin saqla o‘zni, ey birodar, Bu so‘zni aytdilar barcha payg‘ambar. Hasad o‘ti jahannam o‘tidir, bil, Ani ko‘rmay desang mundin hazar qil [9].

“Hasad o‘ti” ifodasida axloqiy illatning zararli mohiyati olov obrazi bilan beriladi. “Ey birodar” murojaati o‘quvchi bilan bevosita muloqot yaratadi; “saqla”, “bil”, “hazar qil” buyruq shakllari pand-nasihat ohangini kuchaytiradi. Mazkur xususiyatlar she’rning mumtoz didaktik adabiyot bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Badiiy san’atlarning qiyosiy tahlili.

She’r	Badiiy vosita	Matniy dalil	Poetik vazifa
Qolur yolg‘uz	Istiora	She’r ta’mini totmagan	Badiiy idrokni hissiy tasvirlash
Qolur yolg‘uz	Ramziy obraz	Gul, rayhon, qo‘ng‘uz, to‘ng‘uz	Nafosat va didsizlikni qarama-qarshi qo‘yish
Tarixiy yodgor	Tashxis	Yig‘lab ustodi aql	Tarixiy iztirobni jonlantirish
Tarixiy yodgor	Tarix moddasi	Kamoli zarar	Sanani abjad bilan ifodalashga urinish
Shobdon botirga	Tashbeh	Mehmondek, arslondek	Vazminlik va jasoratni qiyoslash
Shobdon botirga	Tazod	Yarash – urush	Ikki vaziyatdagi fazilatlarni ko‘rsatish
Hazar qil	Istiora	Hasad o‘ti	Illatning zararini obrazlashtirish
Hazar qil	Nido, buyruq	Ey birodar; hazar qil	Nasihat ta’sirchanligini oshirish

Manba: muallif tomonidan yuqorida tahlil qilingan she’riy misollar asosida tuzildi.

Tahlillar. Sog‘uniy poetikasida mumtoz adabiy an’analar turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. “Qolur yolg‘uz”da badiiy did va tilga munosabat, “Shobdon botirga”da vazminlik va jasorat, “Hazar qil”da axloqiy tarbiya an’anaviy badiiy vositalar bilan ifodalangan. “Tarixiy yodgor” esa Sog‘uniyning boshqa muallifga mansub tarix moddasi namunasini keltirib, sharhlash usulini namoyon etadi. Ushbu matnlarni birlashtiruvchi xususiyat – obrazlilikning ma’rifiy va ijtimoiy mazmunni ta’sirchan yetkazishga xizmat qilishidir.

Xulosa. Alixonto‘ra Sog‘uniy she’riyatining badiiy xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mumtoz adabiy an’analar uning nazmiy merosida faqat tashqi shakl sifatida emas, ma’rifiy va tarixiy fikrni ifodalovchi poetik vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Axloqiy-didaktik baytlarda gavhar, dur va tosh obrazlari insoniy qadr hamda so‘zning qiymatini baholash mezoniga aylanadi.

Shoirning ritorik savol va murojaatlarga asoslangan lirik nutqida shaxsiy kechinma bilan jamoaviy tashvish o‘zaro tutashadi. “Temir qo‘rg‘on” va “yo‘l” kabi obrazlar tarixiy cheklanishni ixcham badiiy umumlashma darajasiga ko‘taradi.

Tadqiqotning asosiy natijasi – Sog‘uniy individual uslubini alohida bir badiiy san’at mavjudligida emas, balki an’anaviy obraz, hikmatli bayt, keskin tanbeh va tarixiy kechinmani o‘zaro bog‘laydigan ifoda tizimida izohlash taklifidir. Kelgusida qo‘lyozma va nashr variantlarini qiyoslash, aruz xususiyatlari hamda obrazlar chastotasini tekshirish mazkur xulosalarni yanada aniqlashtirishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Shokirov Q. (Edikut). Ikki Turkiston g‘ururi // Sharq yulduzi. – 1992. – № 7. – B. 3–12.
2. Sog‘uniy A. Vatanni do‘st tutish imondan ermish: she’rlar // Sharq yulduzi. – 1992. – № 7. – B. 12–18.
3. Sog‘uniy A. Baxtlilik nedur? She’rlar to‘plami / So‘zboshi muallifi M. Kenjabek. – Toshkent: Munir, 2021. – 116 b.
4. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. – Toshkent: “Alixonto‘ra Sog‘uniy” nashriyoti, 2024. – 412 b.
5. Xo‘jamberdiyev Y. Alixonto‘ra Sog‘uniy. – Toshkent: Azon kitoblari, 2021. – 628 b.
6. Pardayeva S. R. Alixonto‘ra Sog‘uniyning ilmiy merosi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – 4(3). – B. 278–283.
7. Sog‘uniy A. Turkiston qayg‘usi. – Elektron matn nusxasi .
8. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII–XIX asrlar, I yarmi). – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 272 b.
9. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alixontora-soguniy-sherlar.html
10. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/alixonto-ra-sog-uniy-1885-1936